



NAVOIY VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

*Dastlabki ma'lumot
2023- yil
yanvar-noyabr*



*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Тел. 79-223-50-43*

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'ati, % da



2023- yil 1-dekabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 6 673 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 11 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 6 662 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATT va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlari asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.




Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023- yilning yanvar-noyabr oyida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 9 847,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 106,6 % ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 669,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,4 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 9 177,9 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 106,3 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 732,8 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 113,4 %) tashkil etdi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar-noyabr oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	9 847,8	106,6
Navoiy sh.	2 502,2	107,7
Zarafshon sh.	1 033,1	106,9
G'ozg'on sh.	90,6	103,4
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	327,6	109,8
Qiziltepa t.	1 270,5	107,4
Navbahor t.	572,4	105,9
Karmana t.	1 666,3	103,6
Nurota t.	432,8	108,9
Tomdi t.	103,2	111,2
Uchquduq t.	525,4	108,5
Xatirchi t.	1 323,7	105,7

2023- yilning yanvar-noyabr oyida 2022- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan viloyatning Tomdi tumani (111,2 %), Konimex tumani (109,8 %) va Nurota tumani (108,9 %) chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'ati dinamikasi (yanvar-noyabr)




So'nggi 5 yillikda (2019- 2023- yillar) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda (112,4 %) kuzatildi.

Chakana savdo tovar aylanmasi 9 847,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 106,6 % ni tashkil qildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'ati, oylar kesimida (foizda)



2023- yilning yanvar-noyabr oyida o'sish sur'ati **106,6** % ni tashkil qildi.



Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 25,4 % bilan 2 502,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni esa, G'ozg'on shahri 0,9 % bilan 90,6 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda o'sish kuzatildi.


Hajmi, mlrd. so'm

Navoiy sh.	2 502,2
Karmana t.	1 666,3
Xatirchi t.	1 323,7
Qiziltepa t.	1 270,5
Zarafshon sh.	1 033,1
Navbahor t.	572,4
Uchquduq t.	525,4
Nurota t.	432,8
Konimex t.	327,6
Tomdi t.	103,2
G'ozg'on sh.	90,6




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 9 177,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022–yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 6,3 % ga oshdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 93,2 % ni tashkil etdi.




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)


Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 11,4 % ga o'sdi va 669,9 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 6,8 % ulushiga to'g'ri keldi.



2023 YIL YANVAR-NOYABR OYLARIDA CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha G'ozg'on shahri (99,6 %), Uchquduq tumani (99,6 %), Tomdi tumani (99,2 %) yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 6,8 % ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy shahri (18,9 %), Navbahor tumani (7,8 %), Zarafshon shahrida (7,0 %) kuzatildi.

6,8 %



93,2 %




 Yirik korxonalar

 Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik




Hududlar kesimida ma'lumot, *ming so'mda*



2023- yilning yanvar-noyabr oyi holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 9 264,2 ming. so'mni (2022- yilning yanvar – noyabr oyiga nisbatan 104,5 %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahri (15 846,5 ming. so'm), Uchquduq (13 403,9 ming. so'm) va Karmana (12 172,0 ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.




Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda **uyushmagan savdo tovar aylanmasi** ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Izoh: Navbahor, Tomdi, Uchquduq tumanlarida va Navoiy, Zarafshon shaharlarida chorva bozori mavjud emas. G'ozg'on shahrida dexqon va chorva bozori mavjud emas,



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shoxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	732,8	113,4
Navoiy sh.	176,1	124,1
Zarafshon sh.	28,9	117,0
G'ozg'on sh.	-	-
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	38,1	122,7
Qiziltepa t.	79,1	104,2
Navbahor t.	9,9	135,3
Karmana t.	178,7	108,3
Nurota t.	47,4	114,1
Tomdi t.	7,6	129,3
Uchquduq t.	23,7	136,1
Xatirchi t.	143,3	105,9


* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.


Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'atlari

(2023- yil yanvar-noyabr)

Izoh G'ozg'on shahrida bozorlar mavjud emas














Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm (2023- yil yanvar-noyabr)



Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-noyabr oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi 732,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 113,4 % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi 456,4 mlrd. so'mni (120,2 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi 276,4 mlrd so'mni tashkil etdi (103,8 %).













2023- yilning noyabr oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 62,2 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi hajmi va ulushi

<p>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi</p> <p>35,3 mlrd. so'm</p>  <p>56,8 %</p>	<p>Non va non mahsulotlari</p> <p>8,3 mlrd. so'm</p>  <p>13,3 %</p>	<p>Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)</p> <p>4,7 mlrd. so'm</p>  <p>7,6 %</p>
<p>Tovuq go'shti</p> <p>1,5 mlrd. so'm</p>  <p>2,3 %</p>	<p>Quritilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)</p> <p>2,4 mlrd. so'm</p>  <p>3,8 %</p>	<p>Tuxum</p> <p>1,7 mlrd. so'm</p>  <p>2,8 %</p>
<p>Ziravorlar</p> <p>1,7 mlrd. so'm</p>  <p>2,7 %</p>	<p>Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)</p> <p>2,6 mlrd. so'm</p>  <p>4,2 %</p>	<p>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak</p> <p>1,1 mlrd. so'm</p>  <p>1,8 %</p>
<p>Tuzlamalar</p> <p>2,2 mlrd. so'm</p>  <p>3,6 %</p>	<p>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)</p> <p>0,7 mlrd. so'm</p>  <p>1,1 %</p>	

2023- yilning noyabr oyida, viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi 26,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi 22,2 mlrd.so'm, qo'y va echkilar – 4,2 mlrd. so'mni, otlar – 0,08 mlrd. so'mni, parrandalar – 0,07 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Uyushmagan savdo aylanmasida chorva mollari (parrandalar) savdosi hajmi va ulushi

<p>2 yoshdan katta bo'lgan qoramollar</p> <p>13,5 mlrd. so'm</p>  <p>50,6 %</p>	<p>1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar</p> <p>4,0 mlrd. so'm</p>  <p>15,2 %</p>	<p>1 yoshgacaha bo'lgan yosh mollar</p> <p>4,7 mlrd. so'm</p>  <p>17,5 %</p>
<p>Qo'ylar</p> <p>3,1 mlrd. so'm</p>  <p>11,7 %</p>	<p>Otlar</p> <p>0,08 mlrd. so'm</p>  <p>0,3 %</p>	<p>Echkilar</p> <p>1,1 mlrd. so'm</p>  <p>4,3 %</p>
<p>Kurka, o'rdak, g'oz</p> <p>0,04 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Tovuqlar</p> <p>0,03 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>	<p>Quyionlar</p> <p>0,03 mlrd. so'm</p>  <p>0,1%</p>
<p>Qushlar</p> <p>0,02 mlrd. so'm</p>  <p>0,1 %</p>		

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- dekabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni 272 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 1 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 271 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	397,8	109,8
Navoiy sh.	132,6	108,7
Zarafshon sh.	60,9	133,1
G'ozg'on sh.	1,5	106,9
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	6,7	110,3
Qiziltepa t.	24,1	105,8
Navbahor t.	52,5	97,1
Karmana t.	67,2	108,6
Nurota t.	5,5	107,2
Tomdi t.	1,7	108,5
Uchquduq t.	15,6	107,1
Xatirchi t.	29,5	109,7

2023- yilning yanvar-noyabr oyida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 397,8 mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan 109,8 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 88,9 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.




2023- yilning yanvar-noyabr oylarida Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Navoiy viloyati	3 495,5	100,0
Navoiy sh.	2 648,0	75,8
Zarafshon sh.	10,1	0,3
G'ozg'on sh.	-	-
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	7,3	0,2
Qiziltepa t.	34,3	1,0
Navbahor t.	8,6	0,2
Karmana t.	754,7	21,6
Nurota t.	10,5	0,3
Tomdi t.	-	-
Uchquduq t.	9,8	0,3
Xatirchi t.	12,2	0,3


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Navoiy shahri (2 648,0 mlrd. so'm), Karmana tumanida (754,7 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi. (mlrd. so‘m)




2023- yilning yanvar-noyabr oyida avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*motorli transport vositalarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishdan tashqari*) 3 495,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 59,6 % ga oshdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi 1 727,2 mlrd. so‘m (o'sish sur'ati – 154,6 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi – 1 768,3 mlrd. so‘mni (o'sish sur'ati – 164,8 %) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi os'ish sur'ati, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar qiymati.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar-noyabr oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi 2 941,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 1,0 % ga o'sdi.

Savdo aylanmasi va ulushi

18,4 % 541,5 mlrd. so'm

Yirik korxonalar

81,6 % 2 399,9 mlrd. so'm

Mikrofirma va kichik korxonalar

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda 2 399,9 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 118,7 % ga to'g'ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi 81,6 % ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES KORXONALARI SAVDO HAJMI VA O'SISH SUR'ATI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega eng yirik korxonalar, Konimex tumani va Navoiy shahrida kuzatildi.

2023- yil 1- dekabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 1 556 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 5 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 551 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar- noyabr oyiga nisbatan, foizda
Navoiy viloyati	2 941,4	101,0
Navoiy sh.	1 369,4	124,6
Zarafshon sh.	121,0	114,6
G'ozg'on sh.	0,1	108,1
<i>tumanlar</i>		
Konimex t.	7,4	131,2
Qiziltepa t.	328,5	113,8
Navbahor t.	238,8	70,1
Karmana t.	614,6	83,1
Nurota t.	36,7	119,0
Tomdi t.	4,3	119,3
Uchquduq t.	100,0	116,4
Xatirchi t.	120,6	56,4